

**PLAKAT SAN'ATI ASARLARINI YARATISHDA, INSON PSIXOLOGIYASIGA TAYANGAN  
HOLDA DIQQATNI JALB QILISHNING SAMARALI USULLARINI TALQIN QILISH**

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti tasviriy san'at va  
muhandislik grafikasi yo'nalishi talabasi  
Ergasheva Rayhon*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada plakat san'atida badiiy qurish usullari, afishalarni yaratishda inson obyektiv olamining ahamiyati, plakat asarlarini yaratishda qanday jihatlarga e'tibor berish kerakligi yuzasidan nazariy ma'lumotlar keltirib o'tildi.

**Kalit so'z va iboralar :** Semantik kontrast vizual nuans, predmet, proporsiya, grafik ijro, monotonlik, allegoriya, transformatsiya, sxematiklashtrish

**Аннотация:** В данной статье были даны теоретические сведения о способах художественного построения в плакатном искусстве, о значении предметного мира человека в создании плакатов, на какие аспекты следует обращать внимание при создании плакатных произведений.

**Ключевые слова и фразы:** смысловой контраст, визуальный оттенок, объект, пропорция, графическое исполнение, монотонность, аллегория, трансформация, схематизация.

**Annotation:** In this article, theoretical information on the methods of artistic construction in poster art, the importance of the human objective world in creating posters, and what aspects to pay attention to when creating poster works have been presented.

**Key words and phrases:** Semantic contrast, visual nuance, object, proportion, graphic performance, monotony, allegory, transformation, schematicization

Plakat san'ati o'zi nima va uning maqsad vazifasi nimadan iborat? Hozirgi kunda uning jamiyatdagi o'rni qanday? Boshqa san'at turlaridan qay jihat bilan ajralib turadi?

Plakat san'ati ma'lum bir xabar yangilik yoki biror mahsulot haqida iste'molchi va insonlarga ma'lum ma'lumotni tez va oson barchaga tushunarli qilib yetkazish demakdir. Hozirgi kunda plakatning ko'plab turlari jamiyat hayotida muhim rol o'ynab kelmoqda. Jumladan uning afisha reklama kabi turlaridan turli soha vakillari samarali foydalanib kelmoqdalar. Plakat san'atidan nafaqat hozirda balki hatto jahon urushi davrida ham insonlarning ongiga dunyoqarashiga eng tez ta'sir ko'rsatuvchi vosita sifatida keng qo'llangan. Ayniqsa 2-jahon urushi davrida fuqarolarni xavfdan ogoh qilish va urushga da'vat etishda plakatlar muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Plakat san'atida uslub jihatidan hech qanday chegara qo'yilmaydi. Ammo plakat insonlarni bevosita o'ziga jalb qilishdek muhim vazifani o'tagani sababli unda asosan yorqin toza ranglardan foydalanish zarur.

Plakat san'atining nazariy asoslari negizida, ushbu san'atning qonun-qoidalari, badiiy tasvir qurish usullari, orqa fon ya'ni plan qay yo'sinda ishlanishi, iste'molchi diqqatini tortish

uchun predmetlardan qay nisbat va proporsiyada qo'llanishi,qanday elementlardan foydalanish kerakligi,plakatni yaratishda subyektiv nuqtayi nazardan yondashish kabi qator masalalar yotadi.

Plakat san'atining bir turi afisha hisoblanadi.Afishani badiiy qurish yaxlitligining ikki asosi mavjud.Birinchisi haqiqatni “hayotni o’z shakllarida” real aks ettiriladi,ikkinchisi buning uchun an'anaviy belgi va turli ramziyliklardan foydalaniladi. San'atdagi hayotning har qanday, eng real aksi har doim an'anaviylik elementlarini o'z ichiga oladi. Aksincha, har qanday belgi yoki ishora faqat haqiqatning ba'zi obyektlari va hodisalari bilan bog'liqligi sababli ishlatalishi mumkin. Haqiqiy san'at asarlarida voqelikni aks ettirishda an'anaviylikning turli darajalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu ularni tomoshabin tomonidan faol va ko'p qirrali idrok etish imkoniyatini yaratadi.

Shu bilan birga, afishada umuman ramziylikdan voz kechishga intilish noto'g'ri bo'ladi. Afishada tasviriy-psixologik, so'ngra grafik ijro uslubi shubhasiz muvaffaqiyatga erishdi, ammo amaliyot shuni ko'rsatadiki, ular monotonlikka olib keladi.Faqat his-tuyg'ularga va idrokning tashqi ta'siriga yoki faqat “Intellektual qiziqish”ga o'z ta'sirini ko'rsatadigan plakat yaratish befoyda.

Diqqatni jalb qilishning qator psixologik usullari mavjud. Ulardan ba'zilari insonning hissiy tashkil etish xususiyatlari (ya'ni uning sezgi organlari tizimining ishiga) tayanadi. Boshqalar semantik elementlarni o'z ichiga oladi. Yorqin rangning katta maydonlari va ayniqsa rang kontrasti (xromatik va axromatik) o'tishning keskin chegarasi bilan muammosiz ta'sir ko'rsatadi. Vizual kontrastning umumiy prinsipi o'xshash va turli xillarning kombinatsiyasiga, monotonlikka xilma-xillikni kiritishga asoslangan. Agar siz, masalan, qator insonlarni bir xil qora kiyimda tasvirlab ohirgi bitta insonni kiyimini qizil yoki sariq rangda tasvirlasangiz,bunda albatta e'tiborni tortadi.


Semantik kontrastning eng keng tarqalgan usuli bu har qanday qarama — qarshi fazilatlarga ega bo'lgan obyektlarni birlashtirishdir: gigant va mitti, keksa odam va bola, to'liq tenglik holatidagi odam va haddan tashqari hayajonlangan odam va boshqalar.vaziyatning qasddan g'ayrioddiyligi, fantastika elementlarini kiritish, har xil allegoriyalardan foydalanish bilan ushbu turdag'i kontrastni kuchaytirish mumkin. Tasvirning qarama-qarshi (badiiy ijro va ma'no jihatidan) qismlari nafaqat o'ziga jalb qiladi, balki individual tafsilotlarni taqqoslaysidan tomoshabinning e'tiborini tortadi. Allegoriya (yun.allegoria-o'zgacha ifodalash,kinoya,qochirim)-badiiy tasvir,obrazlilik turi bo'lib,mavhum tushuncha yoki g'oyalarni muayyan narsa voqeа va hodisa orqali ifodalash.

Afishada obyektlarni bosqichma-bosqich yoki to'satdan o'zgartirish usuli keng qo'llaniladi. Transformatsiya zanjirini ko'rib chiqishga kiritilgan tomoshabin odatda bu jarayonni oxiriga yetkazadi. Ushbu texnikaning juda mashhur bo'lishiga qaramay, uni takror qo'llash imkoniyatlari deyarli cheksizdir-siz bunday o'zgarishlarning semantik mazmuni va vizual nuanslarini muvaffaqiyatli o'zgartirishingiz kerak.

Nuans xususiyatlarning kichik farqini o'z ichiga oladi. Odatda kontrastni to'ldirish uchun ishlatalidi. Nuansning mohiyati kompozitsion elementlarning xususiyatlarining silliq

o'tishidir. Nuans bilan aniq qarama-qarshiliklar mavjud emas, nuans soyaning rolini o'ynaydi, monotonlikdan qochishga yordam beradi.

1-21 rasmida semantik kontrast va vizual nuanslarning farqlarini yaqqol ko'rishimiz mumkin.



1.21-rasm.

a)

b)

E'tiborni jalb qilishning muhim elementi bu inson va uning ko'zi.Nega deganda hayotiy tajribamiz tufayli har doim ham harakterli hususiyatga ega hisoblanadi shuning uchun ham diqqatni tortadi. Bir muncha vaqt e'tiborni jalb qilish va ushlab turish rassomning muhim, ammo faqat dastlabki vazifasidir.

Shu bilan birga afishada mavhum shakllardan foydalanishdan qo'rqlamaslik kerak.Bizning idrokimizning obyektivligi tufayli, psihologik qonunlar ta'siri ostida ekanligi (obyektlar va ularning ramzları o'rtasidagi hayotiy tajribada mustahkam aloqalar o'rnatilgan)ligi sababli,obyektiv bo'limgan shakllar bizning ongimizda beixtiyor vogelikning o'ziga xos obyektlari bo'ladi.

Bunga V. Disney multfilmi yaqqol misol bo'la oladi, uning" qahramonlari " katta va kichik uchburchaklar bo'lib, ular o'zaro bog'liq harakatlarni amalga oshiradilar. Shu bilan birga, tomoshabin ularning "xatti-harakatlarini" inson sifatida qabul qiladi va hatto bu "kichkina odamlarga" ma'lum xarakter xususiyatlarini beradi. Umuman olganda, tasvirlarni taniqli sxematiklashtirish va rasmiylashtirish nafaqat rassomning vazifasini soddalashtiradi, balki tomoshabinning idrokini osonlashtiradi va keskinlashtiradi.

Shunday qilib, ushbu maqolada san'atning bir turi bo'lgan plakat san'ati qonun-qoidalari,badiiy qurish va diqqatni jalb qilishning o'rni haqida bayon qilindi.Ushbu maqola orqali talabalar plakat san'ati haqida atroflicha ma'lumot olishlari va diqqatni jalb qilishda ishtiroy etadigan usullar haqida bataysil ma'lumot olishlari mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.П.А. Кудин, Б.Ф. Ломов, А.А. Митькин. Психология восприятия и искусство плаката. — Москва, «Плакат», 1987. — 208 с.
- 2.Артисты и цирковой плакат. Й.Марквис-Ван Трикс. Новак Б...1986
- 3.Советский плакат в борьбе за коммунизм. А.Ю.Нурок;Москва 1962 Издво Академии художеств СССР.
4. Советский плакат эпохи гражданской войны, 1918—1921. Б.С.Бутник-Сиверский, М., 1960.
- 5.R.A.Xudayberganov,Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari.Cho'lpox nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent — 2019.194 bet